

---

## The status of law terms in sectoral terminology

Mirzaev Farkhod Davlatbekovich  
The Academy of the Ministry of Internal Affairs

**Annotation** *The article analyzes the place and status of legal terminology in the general system of sectoral terminology. The study is based on scientific works by Uzbek, Russian, and German linguists and examines the theoretical foundations of legal terms, their specific characteristics, structural and semantic aspects. The author studies the internal structure of legal terminology, its classification and development history, identifying common and distinctive features of terminological systems in three languages. The article reveals in detail the basic requirements for legal terms such as unambiguity, accuracy, and prescriptiveness. Special attention is paid to the division of legal terminology into inter-branch and branch terminology, their functional features and cognitive aspects. The problems of normalization, standardization and translation of legal terms from one language to another are also considered. The research is conducted by comparing the stages of formation of Uzbek legal terminology with the development paths of German and Russian legal terminologies. The research results offer a new approach to the issues of standardization and normalization of legal terminology. The conclusions emphasize the theoretical and practical significance of legal terminology, its social role and future development directions. The article creates a theoretical basis for comparative research in the field of legal terminology.*

**Keywords** *Legal terminology, sectoral terminology, legal term, inter- specialized terminology, normalization, standardization, comparative research, Uzbek legal terminology, German legal terminology*

---

## Soha terminologiyasida yuridik terminlarning maqomi

Mirzayev Farxod Davlatbekovich  
O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi

**Annotatsiya** *Maqolada yuridik terminologiyaning umumiy soha terminologiyasi tizimidagi o'rni va maqomi tahlil qilingan. Tadqiqot o'zbek, rus va nemis tilshunoslari tomonidan olib borilgan ilmiy ishlar asosida yuridik terminlarning nazariy asoslari, ularning o'ziga xos xususiyatlari, tuzilmaviy va semantik jihatlari ko'rib chiqilgan. Muallif yuridik terminologiyaning ichki tuzilishi, tasnifi hamda rivojlanish tarixini o'rganib, uch tildagi terminologik tizimlarning umumiy va farqli jihatlari aniqlagan. Maqolada yuridik terminlarning bir ma'noliligi, aniqligi va preskriptivligi kabi asosiy talablari batafsilroq ochib berilgan. Alohida e'tibor yuridik terminlarning sohalararo va soha terminologiyalariga ajratilishi, ularning funksional xususiyatlari hamda kognitiv jihatlari qaratilgan. Shuningdek, yuridik terminlarni me'yorlashtirish, standartlashtirish va bir tildan ikkinchi tilga o'tkazishdagi muammolar ham ko'rib chiqilgan. Tadqiqot o'zbek yuridik terminologiyasining shakllanish bosqichlarini, nemis va rus yuridik terminologiyalarining rivojlanish yo'llarini taqqoslash orqali olib borilgan. Tadqiqot natijalari yuridik terminologiyani standartlashtirish va me'yorlashtirish masalalariga yangicha yondashuvni taklif etadi. Xulosalarda yuridik terminologiyaning nazariy va amaliy ahamiyati, uning ijtimoiy roli hamda*

*kelajakdagi rivojlanish yo'nalishlari ta'kidlangan. Maqola yuridik terminologiya sohasidagi qiyosiy tadqiqotlar uchun nazariy asos yaratadi.*

**Kalit so'zlar** *Yuridik terminologiya, soha terminologiyasi, yuridik termin, sohalararo terminologiya, me'yorlashtirish, standartlashtirish, qiyosiy tadqiqot, o'zbek yuridik terminologiyasi, nemis yuridik terminologiyasi*

## Статус юридических терминов в отраслевой терминологии

**Мирзаев Фарход Давлатбекович**  
*Академия МВД Республики Узбекистан*

**Аннотация** *В статье анализируется место и статус юридической терминологии в общей системе отраслевой терминологии. Исследование основано на научных трудах узбекских, русских и немецких лингвистов и рассматривает теоретические основы юридических терминов, их специфические характеристики, структурные и семантические аспекты. Автор изучает внутреннюю структуру юридической терминологии, её классификацию и историю развития, выявляя общие и отличительные черты терминологических систем в трёх языках. В статье подробно раскрываются основные требования к юридическим терминам, такие как однозначность, точность и прескриптивность. Особое внимание уделяется разделению юридической терминологии на межотраслевую и отраслевую, их функциональным особенностям и когнитивным аспектам. Также рассматриваются проблемы нормализации, стандартизации и перевода юридических терминов с одного языка на другой. Исследование проводится путём сопоставления этапов формирования узбекской юридической терминологии с путями развития немецкой и русской юридических терминологий. Результаты исследования предлагают новый подход к вопросам нормализации, стандартизации юридической терминологии. В выводах подчёркивается теоретическая и практическая значимость юридической терминологии, её социальная роль и будущие направления развития. Статья создаёт теоретическую основу для сопоставительных исследований в области юридической терминологии.*

**Ключевые слова** *Юридическая терминология, отраслевая терминология, юридический термин, межотраслевая терминология, нормализация, стандартизация, сопоставительное исследование, узбекская юридическая терминология, немецкая юридическая терминология*

Har qanday fan o'z terminologik tizimiga ega bo'lib, uning rivojlanishi fanning o'zi bilan bevosita bog'liqdir. Yuridik fanlar ham mustasno emas – ular o'zining keng va murakkab terminologik apparatiga ega. Yuridik terminologiya umumiy terminologiya tizimida

maxsus o'rin egallaydi, chunki u davlat va jamiyat hayotining eng muhim sohasini – huquqni aks ettiradi.

Terminologiyaning nazariy asoslarini o'rganish yuridik terminlarning soha terminologiyasidagi mavqeini tushunishda

muhim ahamiyat kasb etadi. Bu masala o'zbek, rus va nemis tilshunosligida turli darajada tadqiq etilgan bo'lib, har bir tilshunoslik maktabi o'ziga xos yondoshuvlarni ishlab chiqqan.

Tilshunoslik fanida "termin" tushunchasining ta'rifi bir necha yo'nalishda rivojlangan. O'zbek tilshunosligida bu masalaga alohida e'tibor qaratilgan. K.R. Fatullayeva ta'kidlashicha, "termin" va "atama" tushunchalari o'rtasida prinsipial farq mavjud. Uning fikricha, "termin" semantik jihatdan maxsus soha doirasida chegaralangan bo'lsa, "atama" kengroq tushuncha hisoblanadi va umumadabiy shaklga ega bo'lgan maxsus so'zni anglatadi (Fatullayeva, 2023; 18).

Terminning boshqa leksik birliklardan farqini belgilash muhim nazariy masala bo'lib qolmoqda. P.P. Nishonov ta'kidlashicha, "terminlar semantik jihatdan maxsus soha doirasida chegaralangan" (Fatullayeva, 2023; 19). Bu ta'rif terminning asosiy xususiyatini – uning aniq bir sohaga mansubligini ko'rsatadi.

Rus tilshunosligida termin masalasiga o'ziga xos tarzda yondashilgan. T.G. Bukina fikriga ko'ra, yuridik termin "qonunchilikda ishlatiladigan, huquqiy tushunchaning umumlashgan nomlanishi bo'lib, aniq va muayyan ma'noga ega bo'lgan so'z yoki barqaror so'z birikmasidir" (Букина, 2023; 33). Bu ta'rif terminning funksional jihatini – uning qonunchilikda qo'llanilishini alohida ta'kidlaydi.

Nemis tilshunosligida termin tushunchasi batafsilroq ishlab chiqilgan. Peter Sandrini o'zining fundamental tadqiqotida yuridik terminlar xususiyatlarini tahlil qilib, ularning oddiy tildagi so'zlardan farqini ko'rsatgan. Uning fikricha, huquqiy tushuncha (*Rechtsbegriff*) ikki asosiy funksiyani bajaradi: birinchidan, u hodisani (*Tatbestand*) tavsiflaydi, ikkinchidan, huquqiy oqibatlar (*Rechtsfolge*) bilan bog'laydi (Sadrini, 1995; 3-4). Bu yondashuv yuridik terminlarning faqat nominativ emas, balki preskriptiv (buyuruvchi) xarakterga ham ega ekanligini ko'rsatadi.

Yuridik terminlar umumiy terminologiya tizimida o'ziga xos o'rin tutadi. Buni ularning

qator maxsus xususiyatlari bilan izohlash mumkin. D.Soyibova ta'kidlashicha, yuridik terminlarga quyidagi talablar qo'yiladi: 1) bir ma'nolilik; 2) emotsionallik va ekspressivlikning yo'qligi; 3) ko'chma ma'no, metafora, metonimiya va sinekdoxaning mavjud emasligi (Soyibova, 2023; 16-17).

Bu talablar yuridik terminlarning o'ziga xos tabiatini aks ettiradi. Bir ma'nolilik talabi yuridik xavfsizlik prinsipi bilan bog'liq – har bir termin faqat bitta aniq tushunchani ifodalashi kerak. T.G. Bukina ham shu fikrni tasdiqlab, yuridik terminlarning "oddiylik, bir ma'nolilik, umume'tirof etilganlik, barqarorlik, tushunarlik va aholining barcha qatlamlari uchun qulaylik" xususiyatlariga ega bo'lishi kerak, deb ta'kidlaydi (Букина, 2023; 33).

Emotsionallik va ekspressivlikning yo'qligi yuridik matnlarning ob'ektiv xarakterini ta'minlaydi. Qonun matni shaxsiy baholardan holi bo'lishi, faqat huquqiy voqelikni aks ettirishi kerak. Bu talab yuridik terminlarni badiiy va publitsistik matnlardagi so'zlardan tubdan farqlaydi.

Y.N. Chufarova yuridik terminlarni qat'iy ravishda professionalizmlar va jargondan ajratish zarurligini ta'kidlaydi. Uning tasnifiga ko'ra, "ideal" termin quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi kerak: oddiylik, qisqalik, bir ma'nolilik, tizimlilik, emotsional-baholovchi ekspressiyaning yo'qligi (Чуфарова, 2018; 9). Bu xususiyatlar yuridik terminning professionalizmlardan asosiy farqini ko'rsatadi – terminlar rasmiy, stilistik jihatdan neytral va qonunchilikda mustahkamlangan bo'lishi kerak.

Nemis yuridik tadqiqotlarda terminlarning maxsusligi yanada chuqurroq tahlil qilingan. P. Sandrini yuridik tushunchalarning interpretatsiya va qiyos orqali huquqni rivojlantirish (*Rechtsfortbildung und Analogie*) kabi xususiyatlarga ega ekanligini ko'rsatadi (Sadrini, 1995; 5-6). Bu yuridik terminlarning dinamik xarakterini aks ettiradi – ular qonunchilik amaliyoti va sud talqinlari orqali rivojlanib boradi.

Yuridik terminologiya umumiy terminologik tizimda maxsus o'rin egallaydi. Bu soha terminologiyasi ikki asosiy qismga ajratiladi: huquq terminologiyasi va huquqshunoslik terminologiyasi. T.G. Bukinaning fikriga ko'ra, yuridik terminologiya ijtimoiy-siyosiy terminologiyaning tarkibiy qismi bo'lib, o'z navbatida ikki asosiy guruhga bo'linadi: 1) huquq terminologiyasi (qonunchilik, me'yor ijodkorligi, huquqni qo'llash sohalaridagi terminlar); 2) huquqshunoslik terminologiyasi (huquqiy doktrinaga oid terminlar) (Букина, 2023; 33).

Yuridik terminologiyaning ichki tasnifi uning murakkab tuzilishini ko'rsatadi. T.G. Bukina taklifiga ko'ra, yuridik terminologiyada ikki asosiy kategoriya farqlanadi: sohalararo va soha terminologiya. Sohalararo terminologiya huquqning bir necha sohalarida qo'llaniladigan terminlarni o'z ichiga oladi, masalan, *"moddiy javobgarlik"*, *"sezilarli darajada zarar"*, *"qanoatsizlik"* kabi terminlar (Букина, 2023; 33). Soha terminologiyasi esa aniq bir huquqiy munosabatlar sohasi uchun xos bo'lgan terminlardan iborat.

Bu tasnifning ahamiyati shundaki, u yuridik terminlarning qo'llanish doirasini aniqlashga imkon beradi. D. Soyibova ishlab chiqilgan batafsil tasnifni keltiradi, unga ko'ra yuridik terminlar qo'llanish sohasiga ko'ra 14 guruhga bo'linadi: 1) umumiyuridik terminlar; 2) konstitutsiyaviy-huquqiy terminlar; 3) ma'muriy-huquqiy terminlar; 4) fuqarolik-huquqiy terminlar; 5) jinoiy-huquqiy terminlar; 6) yer-huquqiy terminlar; 7) agrar-huquqiy terminlar; 8) mehnat huquqi terminlari; 9) ijtimoiy ta'minot terminlari; 10) ekologik huquq terminlari; 11) moliyaviy huquq terminlari; 12) fuqarolik-protsessual terminlar; 13) jinoiy-protsessual terminlar; 14) xalqaro-huquqiy terminlar (Soyibova, 2023; 18-19).

Bu tasnifning ahamiyati shundaki, u yuridik terminologiyaning kengligi va ko'p qirraliligini ko'rsatadi. Har bir guruh o'z ichki tuzilishiga, rivojlanish tarixiga va funksional xususiyatlariga ega.

Yuridik terminologiyaning shakllanishi va rivojlanishi huquq tizimining tarixi bilan chambarchas bog'liq. M. Xamdamova o'zbek yuridik terminologiyasining rivojlanishida besh asosiy davrni ajratadi: 1) 1920-1937-yillar – arab terminlarining ustunligi; 2) 1938-1950-yillar – rus terminlarining majburiy joriy etilishi; 3) 1950-1990-yillar – rus terminlarining bosqichma-bosqich joriy etilishi; 4) 1989-1993-yillar – terminlarni milliy lashtirishning boshlanishi; 5) 1993-yildan keyin – rivojlanish prinsiplarining belgilanishi (Xamdamova, 2025; 113-114).

Bu davrlashtirish o'zbek yuridik terminologiyasining turli tarixiy sharoitlarda qanday shakllanganini ko'rsatadi. Birinchi davrda arab-fors terminlari ustunlik qilgan, chunki o'zbek xalqining yuridik madaniyati ko'p asrlar davomida islom huquqi bilan bog'liq bo'lgan. Ikkinchi va uchinchi davrlarda rus terminlarining kiritilishi sovet huquq tizimiga o'tish bilan bog'liq. To'rtinchi va beshinchi davrlar mustaqillik yillaridagi milliy yuridik terminologiya yaratish jarayonini aks ettiradi.

M. Xamdamovaning alohida ta'kidiga ko'ra, har bir tarixiy davr o'z terminologik lug'atlarini yaratgan. Masalan, 1926-yilda G'ozii Yunusning lug'ati, 1959-yilda Bakirovning lug'ati, 1993-yilda Ahmedov, Saidov va Bozorovlarning lug'ati nashr etilgan (Xamdamova, 2025; 114). Bu lug'atlar o'z davrining yuridik terminologiyasini aks ettiradi va tarixiy taraqqiyotni kuzatishga imkon beradi.

Nemis yuridik terminologiyasining rivojlanishi ham e'tiborga molik. T.A. Lenkova ta'kidlashicha, nemis huquq tizimi rim huquqi an'alariga asoslangan bo'lib, bu terminologiyada ko'plab lotincha terminlarning saqlanishiga olib kelgan (Ленкова, 2011; 5-8). Shu bilan birga, nemis yuridik terminologiyasi o'z milliy xususiyatlarini ham saqlab qolgan – masalan, kompozit terminlarni yaratish qobiliyati (*Gerichtsverfahren, Eigentumsrecht va boshqalar*).

Rus yuridik terminologiyasining tarixi ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. T.G. Bukina o'z tadqiqotida, rus yuridik terminologiyasi

uzoq rivojlanish yo'lini bosib o'tganligini, unda slavyan, vizantiya, nemis va fransuz yuridik madaniyatlarining ta'siri sezilishini ko'rsatib berdi (Букина, 2023; 33).

Yuridik terminlarning tuzilmaviy tahlili ularning shakllanish mexanizmlarini tushunishga imkon beradi. D. Soyibova Sh. Ko'chimovning tasnifiga asoslanib, yuridik terminlarni tuzilishiga ko'ra to'rt guruhga ajratadi: 1) bir komponentli terminlar (qaror, ariza, kassatsiya); 2) ikki komponentli terminlar (davlat boji, qonunchilik hujjatlari); 3) uch komponentli terminlar (jinoiyat kodeksi, oliy sud, qonun ijodkorligi); 4) ko'p komponentli terminlar (ozodlikdan mahrum etish, jinoiyat-qidiruv bo'limi) (Soyibova, 2023; 17-18).

Bu tasnifning amaliy ahamiyati katta, chunki u terminlarning murakkablik darajasini va ularni qo'llashdagi qiyinchiliklarni ko'rsatadi. Odatda, bir komponentli terminlar aniqroq va tushunarliroq bo'ladi, ko'p komponentli terminlar esa batafsilroq, lekin murakkabroq bo'ladi.

Sh. Atajonov nemis yuridik terminlarining tuzilmaviy xususiyatlarini batafsil tahlil qilgan. Uning tasnifiga ko'ra, nemis yuridik terminlari ham tuzilishiga ko'ra uch guruhga bo'linadi: 1) bir komponentli terminlar (*das Gesetz, die Bestrafung, die Erbfolge, der Beschuldigte, das Recht*); 2) ikki komponentli terminlar (*bürgerliches Gesetzbuch, gesetzliches Schuldverhältnis*); 3) ko'p komponentli terminlar (*Allgemeines Deutsches Handelsgesetzbuch, freie richterliche Überzeugung*) (Atajonov, Turabayeva, Ruzmetova, 2025; 2-3).

Sh. Atajonov alohida ta'kidlashicha, nemis tilida bir komponentli terminlar o'zbek tiliga ko'p komponentli terminlar sifatida tarjima qilinadi. Masalan, *die Frauenrecht* – "ayollar huquqi", *gesetzgebende Gewalt* – "qonun chiqaruvchi hokimiyat" (Atajonov, Turabayeva, Ruzmetova, 2025; 3). Bu nemis va o'zbek yuridik terminologiyalarining tuzilmaviy farqini ko'rsatadi.

Y.N. Chufarova terminlarning formal jihatdan professionalizmlardan farqini

ko'rsatadi. Professionalizmlar ko'pincha qisqartmalar shaklida ishlatiladi (*masalan, "вещдоку" – "вещественные доказательства" o'rniga, "кассатор" – "лицо, подавшее кассационную жалобу" o'rniga*) (Чуфарова, 2018; 10). Terminlar esa hamisha to'liq shaklda q'lllaniishi kerak.

Yuridik terminlarning semantik xususiyatlari ularning ma'no tuzilishini aks ettiradi. Bu masala yuridik terminologiyaning bir ma'nolilik talabini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

K.A. Mo'ydinov yuridik terminlarning ma'no muammolarini batafsil tahlil qilgan. U o'zbek yuridik terminologiyasidagi sinonimiya muammosini alohida ko'rsatadi. Masalan, "advokat", "himoyachi" va "ishonchli vakil" terminlari bir ma'noni anglatadi, lekin turli kontekstlarda ishlatiladi (Mo'ydinov, 2018; 46-47). K.A. Mo'ydinovning fikricha, bu sinonimlar qonunchilik matnlarida chalkashlikka olib kelishi mumkin.

M.R. Baxriddinova o'zbek va nemis yuridik terminlarida giponimiya munosabatlarini o'rgangan. Uning tahliliga ko'ra, giponimiya yuridik terminologiya tizimining muhim qismi hisoblanadi. Masalan, o'zbek tilida "jinoiyat" terminining giponimlari: "yengil jinoiyat", "og'ir jinoiyat", "qasddan sodir etilgan jinoiyat" va boshqalar (Baxriddinova, 2023; 19-20).

Nemis terminologiyasida ham shunday giponimik munosabatlar mavjud. Masalan, "Verbrechen" (jinoiyat) terminining ostida "Mord" (qotillik), "Diebstahl" (o'g'irlik), "Betrug" (firibgarlik) kabi giponimlar keladi. M.R. Baxriddinova o'rganishicha, giponimik munosabatlar yuridik terminologiyaning ierarxik tuzilishini ko'rsatadi (Baxriddinova, 2023; 20).

P. Sandrini yuridik tushunchalarning ma'no xususiyatlarini falsafiy nuqtai nazardan tahlil qiladi. Uning fikricha, yuridik tushunchalarni intensional va ekstensional ta'riflar orqali aniq belgilash mushkul. Chunki yuridik tushuncha har doim qiyos orqali kengayishi mumkin, bu esa uning ekstensional

ta'rifini o'zgartiradi (Sandrini, 1995; 6-7). Bu yuridik terminlarning dinamik tabiatini ko'rsatadi.

Yuridik terminlarning asosiy funksiyalari ularning huquqiy tizimdagi rolini belgilaydi. Soyibova D. yuridik terminlarning quyidagi funksiyalarini ajratadi: 1) nominativ funksiya – tushunchalarni nomlash; 2) definitiv funksiya – tushunchalarni aniqlash; 3) preskriptiv funksiya – qoida va me'yorlarni belgilash (Soyibova, 2023; 19-20).

Nominativ funksiya barcha terminlarga xos bo'lsa, preskriptiv funksiya faqat yuridik terminlarga xosdir. Yuridik termin nafaqat tushunchani nomlaydi, balki muayyan huquqiy oqibatlarni belgilaydi. Masalan, *"jinoyat"* termini nafaqat qonunga hilof qilmishni nomlaydi, balki uning uchun belgilangan jazo tizimini ham nazarda tutadi.

T.G. Bukina yuridik terminlarning ijtimoiy funksiyasini alohida ta'kidlaydi. Uning fikricha, yuridik terminologiya faqat mutaxassislar uchun emas, balki barcha aholi uchun tushunarli bo'lishi kerak. Chunki qonun nobilimlik javobgarlikdan ozod qilmaydi (Букина, 2023; 33). Bu talab yuridik terminlarning oddiyligi va tushunarligi zarurligini anglatadi.

P. Sandrini yuridik tushunchalarning тизимлилик funksiyasini alohida ko'rsatadi. Uning fikricha, yuridik tushuncha alohida mavjud бўлмай, huquqiy tizimning bir qismi sifatida tushuniladi (Sandrini, 1995; 9-10). Bu yuridik terminlarni o'rganishda tizimli yondashuvning zarurligini ko'rsatadi.

Yuridik terminlarni me'yorlashtirish huquqiy aniqlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. K.A. Mo'ydinov o'zbek yuridik terminologiyasini me'yorlashtirishdagi muammolarni batafsil tahlil qilgan. Uning fikricha, ko'plab o'zbek yuridik terminlari rus tilidan to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinishi oqibatida lug'aviy ma'nosi aniq bo'lmagan xolda qonunchilikka kiritilgan (Mo'ydinov, 2018; 46).

Muallif aniq misol keltiradi: *"advokat"*, *"himoyachi"* va *"ishonchli vakil"* terminlarining

har biri aynan bir xil ma'nomi anglatadi, yoki ular orasida semantik farq bormi? Uning tahlili bo'yicha, *"advokat"* termini professional kasbni, *"himoyachi"* protsessual rolni, *"ishonchli vakil"* esa vakolat asosini anglatadi (Mo'ydinov, 2018; 47). Lekin qonunchilik matnlarida bu terminlar ko'pincha sinonim sifatida ishlatiladi, bu esa chalkashlikka olib keladi.

M. Baxriddinova o'zbek yuridik terminlarining standartlashtirilmaganligi muammosini ko'rsatadi. Uning fikricha, ba'zi bir terminlar turli qonunchilik hujjatlarida turlicha ishlatiladi. Masalan, *"bitta soliq"*, *"nikoh yoshi"* va *"voyaga etganlik yoshi"* kabi terminlar hanuz to'liq me'yorlashtirilmagan (Bakhriddinova, 2024; 1229-1230).

Nemis yuridik terminologiyasi esa yuqori darajada standartlashtirilgan. T.A. Lenkova ta'kidlashicha, nemis tilida yuridik terminlar aniq va rasmiy xarakterga ega. Masalan, *"Rechtsnorm"* (huquq normasi) termini aniq va bir ma'noli (Ленкова, 2011; 15-17). Bu nemis huquqiy tizimining yuqori rivojlanganligini ko'rsatadi.

Yuridik terminlarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish ham ko'p jihatdan murakkab jarayon. P. Sandrini yuridik terminlarni qiyoslash muammosini batafsil tahlil qilgan. Uning fikricha, turli huquqiy tizimlarga mansub yuridik tushunchalar orasida to'liq ekvivalentlikni topish mushkul. Chunki har bir yuridik tushuncha aniq bir huquqiy tizimda shakllangan va shu tizimning funksional qismi hisoblanadi (Sandrini, 1995; 11-12).

P. Sandrini taklifiga ko'ra, yuridik terminlarni qiyoslashda funksional yondashuv qo'llash kerak. Ya'ni, ikki tushunchaning intensional (semantik) jihatdan bir xilligi emas, balki ular o'z huquqiy tizimlarida bajaradigan funksiyaning o'xshashligi muhim (Sandrini, 1995; 12-13). Bu yondashuv yuridik terminologiyada ekvivalentlik masalasini yangicha tushunishga imkon beradi.

Sh. Ko'chimov o'zbek yuridik tarjima amaliyotida uchraydigan muammolarni aniq misollar bilan ko'rsatadi. Masalan, *"Suvlarning davlat hisobini yuritish"* degan tarjima xato

bo'lib, to'g'ri variant "*Davlatning suv hisobini yuritish*" bo'lishi kerak (Ko'chimov, 2022; 59). Bunday xatolar grammatik strukturani noto'g'ri tarjima qilish natijasida yuzaga keladi.

Sh. Ko'chimov yana bir muhim muammoni – yuridik ma'no yo'qotilishi muammosini ko'rsatadi. Masalan, rus tilidagi "*заклучение соглашения*" iborasining "*kelishish*" deb tarjima qilinishi yuridik ma'nosini butunlay yo'qotadi (Ko'chimov, 2022; 60). Bu holda "*shartnoma tuzish*" degan aniq yuridik termin qo'llanishi lozim.

Yuridik terminologiyaning kognitiv tahliliga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, uning tushuncha tizimidagi o'rnini aniqlashga imkon beradi. N.S. Sayidrahimova kognitiv tilshunoslik doirasida "*tushuncha*" va "*konsept*" kategoriyalarini ajratadi. Uning fikricha, "*konsept*" "*tushuncha*"dan kengroq bo'lib, u nafaqat predmetning muhim belgilarini, balki uning yuzaki tomonlarini ham aks ettiradi (Sayidrahimova, 2022; 99-100).

Bu farq yuridik terminologiyani o'rganishda muhim, chunki yuridik terminlar faqat mantiqiy tushunchalar emas, balki madaniy va ijtimoiy kontekstga ega konseptlar hisoblanadi. Masalan, "*odillik*" konsepti turli madaniyatlarda turlicha anglanadi, bu esa yuridik terminlarning milliy o'ziga xosligini ta'kidlaydi.

N.S. Sayidrahimova konseptlarni tahlil qilishning ikki asosiy modelini ko'rsatadi: I.A. Sternin modeli va Y.A. Stepanov modeli. Sternin modeliga ko'ra, konseptlar bir pog'onali, ko'p pog'onali va segmentli bo'lishi mumkin (Sayidrahimova, 2022; 102-103). Bu tasnifni yuridik terminlarga tatbiq etish ularning murakkablik darajasini aniqlashga imkon beradi.

Yuridik terminlarning amaliy qo'llanilishi qonunchilik va sud amaliyotida muhim rol o'ynaydi. Sh. Ko'chimov yuridik tarjimaning o'n prinsipini ishlab chiqqan: 1) huquqiy normani tarjima qilishdan oldin to'liq tushunish; 2) rasmiylik, aniqlik, neytrallik prinsiplariga rioya qilish; 3) fonetik, leksik, grammatik qoidalarga qat'iy rioya qilish; 4) yuridik leksikani qo'llash,

arxaizmlardan qochish; 5) iloji boricha umumiste'mol so'zlarni ishlatish; 6) yuridik terminlarning barqarorligiga rioya qilish; 7) terminlarning keng aholi uchun tushunarligini hisobga olish; 8) asl matnning grammatik tuzilishini saqlash; 9) murakkab gaplarni oddiy gaplarga ajratish; 10) tarjimaning ko'p marotaba ekspertiza qilinishi (Ko'chimov, 2022; 61-63).

Bu prinsiplar yuridik terminlarni amaliy qo'llashda aniqlik va tushunarlikni ta'minlashga qaratilgan. Ular nafaqat tarjimonlar, balki qonunchilik matnlarini tuzuvchilar uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuridik terminologiya nafaqat mutaxassislar uchun, balki butun jamiyat uchun muhim. T.G. Bukina fikricha, yuridik terminlarning tushunarligi huquqiy savodxonlikni oshirishda muhim rol o'ynaydi (Bukina, 2023; 33). Aholining yuridik terminlarni tushunishi ularning huquqiy ongini rivojlantiradi va qonunga rioya etish darajasini oshiradi.

M. Baxriddinova yuridik matbuot tilida terminlar qo'llanilishi masalasini ko'targan. Uning fikricha, o'zbek yuridik matbuotida "*me'yoriy-huquqiy hujjat*" kabi murakkab terminlar keng aholi uchun tushunarli emas (Bakhriddinova, 2024; 1229). Shuning uchun yuridik terminlarni oddiylashtirish va izohlash zarur.

Nemis yuridik matbuoti bu jihatdan yaxshiroq rivojlangan. M. Baxriddinovaning fikriga ko'ra, nemis tilida yuridik terminlar ancha aniq va oddiy. Masalan, "*Rechtsnorm*" termini ham mutaxassislar, ham oddiy aholi uchun tushunarli (Bakhriddinova, 2024; 1230).

Yuridik terminologiya doimo rivojlanib boradi. M. Xamdamova terminlarning evolyusiyasi masalasini ko'rib chiqadi. Uning fikricha, ba'zi terminlar vaqt o'tishi bilan o'zgaradi. Masalan, "*amnesty*" (*amnistiya*) termini "*pardon*" (*afv*) bilan almashtirilmogda (Xamdamova, 2025; 115). Bu yuridik terminologiyaning dinamik tabiatini ko'rsatadi.

Zamonaviy rivojlanish yo'nalishlaridan biri – yuridik terminlarni xalqaro standartlarga

moslashtirish. M. Xamdamova ta'kidlashicha, bu jarayon terminlarning milliy xususiyatlarini saqlagan holda amalga oshirilishi kerak (Xamdamova, 2025; 116).

Ikkinchi muhim yo'nalish – yuridik terminlarni raqamli muhitga moslashtirish. Kiberjinoyatlar, elektron hukumat, raqamli hujjatlar kabi yangi sohalar yangi terminlarni talab qiladi.

Yuridik terminologiyaning qiyosiy tadqiqoti ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. P. Sandrini funksional qiyoslash (*funktionale Rechtsvergleichung*) usulini taklif qiladi. Bu usul turli huquqiy tizimlardagi terminlarni ularning funksiyasiga ko'ra solishtirishga asoslangan (Sandrini, 1995; 13-14).

B. Rustamova o'zbek va nemis yuridik leksik birliklarini qiyoslashda ikki tildagi terminlarning tuzilmaviy farqlarini ko'rsatadi. Masalan, o'zbek tilida so'z yasash, o'zlashmalar orqali terminlar hosil qilinsa, nemis tilida kompozitlar (murakkab so'zlar) va lotincha o'zlashmalar ustunlik qiladi (Rustamova, 2025; 435-436).

Bu farqlar ikki tilning tipologik xususiyatlari bilan bog'liq. Nemis tili – flektiv til bo'lib, so'z yasashda kompozitlar keng ishlatiladi. O'zbek tili – agglyutinativ til bo'lib, unda so'z yasash asosan qo'shimchalar orqali amalga oshiriladi.

Yuridik terminologiya milliy va xalqaro komponentlarning uyg'unligidan iborat. Xar bir milliy huquqiy tizim o'z terminologiyasini shakllantiradi, lekin globallashuv sharoitida xalqaro huquqiy terminlar ham joriy qilinadi.

Xamdamova M. ta'kidlashicha, o'zbek yuridik terminologiyasi mustaqillik yillarida milliy xususiyatlarni kuchaytirdi. Lekin shu bilan birga, xalqaro huquqiy hujjatlarni ratifikatsiya qilish jarayonida xalqaro terminlar ham qabul qilindi (Xamdamova, 2025; 115-116).

Nemis yuridik terminologiyasi Yevropa Ittifoqi doirasida uyg'unlik jarayonidan o'tmoqda. Bu jarayon milliy terminlarni Yevropa huquqining umumiy prinsiplari bilan uyg'unlashtirishni talab qiladi.

Yuridik terminlar ixtisoslashtirilganlik darajasiga ko'ra turlicha bo'ladi. Sh. Atajonov nemis yuridik terminlarining semantik tasnifini taklif qiladi: 1) tor yuridik terminlar – faqat huquqda ishlatiladigan terminlar (*Bescheidbeschwerde, Legalitätsprinzip*); 2) keng yuridik terminlar – huquqdan tashqari sohalar ham ishlatiladigan terminlar (*Widerspruch, die Klage, die Tätigkeit*); 3) noyuridik so'zlar – umumiste'mol so'zlar yuridik kontekstda (*die Strasse*) (Atajonov, 2025; 3).

Bu tasnifni o'zbek yuridik terminologiyasiga yuridik matnlardan kelib chiqib ham qo'llash mumkin. Masalan, "hukm", "ariza", "sudlanuvchi" – tor yuridik terminlar; "huquq", "javobgarlik", "himoya" – keng yuridik terminlar; "odam", "mulk", "kun" – yuridik bo'lmagan so'zlar.

Yuridik terminologiyani o'qitish muhim amaliy masala hisoblanadi. T.G. Bukina yuridik institutlarda yuridik terminologiyani o'qitishning metodikasini ko'rib chiqadi. Uning fikricha, talabalar yuridik terminlarning nafaqat shaklini, balki ularning aniq ma'nosi va qonunchilikda qo'llanilishini ham egallashlari kerak (Букина, 2023; 33).

Yuridik terminlarni o'rganishning muhim jihati – ularni amaliyotda qo'llay olish qobiliyatini shakllantirish. Sh. Ko'chimov ta'kidlashicha, yurist-mutaxassis tayyorlashda terminlarni noto'g'ri qo'llash oqibatlarini haqida ham o'qitish zarur (Ko'chimov, 2022; 63). Yuridik terminologiyaning soha terminologiyasidagi mavqegini tahlil qilish quyidagi xulosalarni chiqarishga imkon beradi:

*Birinchidan*, yuridik terminologiya – bu o'ziga xos tuzilma, semantika va funksiyalarga ega mustaqil terminologik tizim. U umumiy terminologiyadan o'zining bir ma'nolilik, aniqlik va preskriptivlik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Yuridik terminlar nafaqat tushunchalarni nomlaydi, balki huquqiy oqibatlarni ham belgilaydi.

*Ikkinchidan*, yuridik terminologiya ichki tuzilishi jihatdan ikki asosiy qismga – sohalararo va soha terminologiyasiga ajratiladi. Sohalararo terminologiya huquqning turli sohalarida

qo'llaniladigan umumiy terminlardan iborat bo'lsa, soha terminologiyasi ma'lum bir huquq tarmog'iga xos terminlarni o'z ichiga oladi. Bu tasnifning amaliy ahamiyati – u terminlarning qo'llanish doirasini aniq belgilashga imkon beradi.

*Uchinchidan*, o'zbek, va nemis yuridik terminologiyalari o'zlarining shakllanish tarixi, tuzilmaviy va semantik xususiyatlari jihatidan farqlanadi. O'zbek yuridik terminologiyasi arab-fors, turk, rus va milliy qatlamlardan tashkil topgan, nemis yuridik terminologiyasi rim huquqi an'alariga asoslangan. Har ikkala terminologik tizim ham o'z milliy huquqiy tizimining xususiyatlarini aks ettiradi.

*To'rtinchidan*, yuridik terminlarning tuzilmaviy tahlili ko'rsatadiki, nemis tilida kompozitlar orqali yangi terminlar yaratish imkoniyati keng, o'zbek tilida esa ko'p komponentli terminlar hosil qilish yo'li ustun. Bu tipologik farq ikki tilda yuridik matnlarning turlicha tashkil etilishiga olib keladi.

*Beshinchidan*, yuridik terminlarni me'yorlashtirish va standartlashtirish muammosi hali hal etilmagan. O'zbek yuridik terminologiyasida sinonimiya, polisemiya va tuzilmaviy nomutanosiblik hollari uchraydi, bu esa qonunchilik matnlarining aniqligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Nemis yuridik terminologiyasi esa yuqori darajada standartlashtirilgan va bu jihatdan namuna bo'la oladi.

*Oltinchidan*, yuridik terminlarni bir tildan ikkinchi tilga o'tkazishda faqat lug'aviy ekvivalent topish yetarli emas – funksional ekvivalentlik prinsipiga asoslanish zarur. Chunki har bir yuridik termin ma'lum bir huquqiy tizimda shakllangan va o'sha tizimning funksional qismi hisoblanadi.

*Yettinchidan*, yuridik terminologiyaning kognitiv tahlili asosida ta'kidlash lozimki, yuridik terminlar nafaqat mantiqiy tushunchalar, balki madaniy va ijtimoiy konseptlar sifatida qaralishi lozim. Bu yondashuv yuridik terminlarning milliy-madaniy o'ziga xosligini tushunishga imkon beradi.

*Sakkizinchidan*, yuridik terminologiya doimiy rivojlanib borayotgan tizimdir. Yangi ijtimoiy munosabatlar, texnologik o'zgarishlar va xalqaro huquqiy integratsiya jarayonlari yangi terminlarning paydo bo'lishiga va mavjud terminlarning ma'no doirasining kengayishiga olib keladi.

*To'qqizinchidan*, yuridik terminlarning ijtimoiy ahamiyati yuqori – ularning tushunarligi aholining huquqiy savodxonligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun yuridik terminologiyani soddalashtirish va aholi uchun tushunarli qilish zarur.

*O'ninchidan*, yuridik terminologiyaning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganish nafaqat tilshunoslik, balki huquqshunoslik fani uchun ham muhim. Bu ikki fanning integratsiyasi yuridik terminologiyani yanada takomillashtirishga va huquqiy tizimning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, yuridik terminologiya soha terminologiyasida alohida va muhim o'rin tutadi. U nafaqat tushunchalarni aks ettiruvchi vosita, balki huquqiy tizimning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Yuridik terminlarning aniqligi, bir ma'noliligi va standartlashtirilganligi qonunchilikning samarali faoliyat yuritishini ta'minlaydi va huquqiy xavfsizlikning muhim sharti bo'lib xizmat qiladi.

## References:

1. Букина, Т. Г. (2023). Изучение юридической терминологии на занятиях по русскому языку. *UDK 34.06*, 33.
2. Ленкова, Т. А. (2011). *Юридическая лексика немецкого языка: Учебно-методические рекомендации*. РГУ имени С. А. Есенина.

3. Современная узбекская лексикография и терминология: Учебно-методический комплекс. (2016).
4. Чуфарова, Е. Н. (2018). Юридические термины, профессионализмы и профессиональный жаргон: проблема разграничения понятий. *Право и политика*, (2), 9–14. <https://doi.org/10.7256/2454-0706.2018.2.25325>
5. Abdujalilova, R. (2024). Criminal linguistics and legal terminology. *World Bulletin of Management and Law*, 41, 4–7.
6. Atajanov, Sh., Turabayeva, M., & Ruzmetova, D. (2025). Nemis tilidagi sof yuridik terminlar tasnifi va leksik xususiyatlari. *JMEA Journal of Modern Educational Achievements*, 2, 2–4.
7. Bakhriddinova, M. (2024). O'zbek va nemis yuridik matbuoti tillarini chog'ishtirma tadqiqi. *Zenodo*. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14912732>
8. Bakhriddinova, M. R. (2023). Relationship of form and meaning of legal terms in Uzbek and German languages. *Academic Research in Modern Science*, 19–24. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7785165>
9. Fatullayeva, K. (2023). O'zbek tilshunosligida sohaga oid terminologiyaning leksikografik xususiyatlari. *Zenodo*. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8171973>
10. Ko'chimov, Sh. (2022). O'zbekistonda qonun tarjimashunosligining dolzarb masalalari. *Translation Forum*, 2(Special Issue 28), 58–64. <https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-28-58-64>
11. Mirzayev, F. (2023). Nemis tilida kriminologik leksikaning lingvokognitiv jihatlar va o'zbek tiliga tarjima muammolari. *Zenodo*. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17621282>
12. Mo'yidinov, K. A. (2018). Legal terms and their meanings. *European Science*, (10[42]), 46–47.
13. Rustamova, B. (2025). O'zbek va nemis tillarida yuridik sohaga oid leksik birliklarning qiyosiy tadqiqi. *Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan*, 3(4), 434–438.
14. Sandrini, P. (1995). *Der Rechtsbegriff: Implikationen für die mehrsprachige Terminologearbeit* (pp. 1–13). Innsbruck.
15. Sayidrahimova, N. S. (2022). Kognitiv tilshunoslikda "tushuncha" va "konsept", ularni tahlil qilish usullari. *O'zbekistonda xorijiy tillar*, 2(43), 98–107. <https://doi.org/10.36078/1653025491>
16. Soyibova, D. (2023, December). Huquq sohasiga oid terminlarning tasnifi va tavsifi. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 16–21.
17. Xamdamova, M. (2025). Research and development of Uzbek legal terms. *American Journal of Philological Sciences*, 5(5), 113–116.